

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 6 |
ISSUE 3

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 3



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессор, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ИБРОҲИМ УСМАНОВ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Бериуний номидаги
Шарқшунослик институти – Тарих фанлари номзоди, доцент
(Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети в.б. профессор, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛРАЗЕК САДЕК АБДЕЛРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор в.б. Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Дизайн–саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ИБРОХИМ УСМАНОВ

кандидат исторических наук, доцент, Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан (Узбекистан)

АХМЕД МУССА АБДАЛЛА СЕЙФЕЛДИН

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

и.о.профессор Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

доктор философских наук (DSc), исполняющая обязанности профессора, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан).

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

IBROHIM USMANOV

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor, Abu Rayhon
Beruniy Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of
Uzbekistan (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical
Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

DILBAR FAYZIKHODJAYEVA IRGASHEVNA

Doctor of Philosophy (DSc), Acting Professor, National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Madayeva Shahnoza Omonullayevna JADIDCHILIK TA'LIMOTINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY USTUVOR YONDASHUVLARI.....	7
2. Yuldasheva Farida Xujamkulovna GLOBALLASHUV VA SIVILIZATSIYA: TARAQQIY ETISHI VA MUNOSABATLARI....	13
3. Yusupova Dildora Dilshatovna THE NATIONAL MODEL OF UPBRINGING IN THE JADIDIC TEACHINGS.....	25
4. G'aniyev Ithom Muzaffarovich JAHON ADABIYOTI VA JADIDLAR BADIY MEROSIDA INTERTEKSTUALLIK.....	31
5. Amirov Azamat Odil og'li A HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL PERSPECTIVE ON JADIDISM AND ITS INFLUENCE ON THE MODERNIZATION OF MUSLIM COMMUNITIES.....	39
6. Джураева Нигора Авазовна СЕТЕВЫЕ ВЛИЯНИЯ И АВТОПОЭТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ КОГНИТИВНОЙ РЕКОНФИГУРАЦИИ СОЗНАНИЯ ВОСТОЧНОГО ЧЕЛОВЕКА В КОНТЕКСТЕ ЦИВИЛИЗАЦИОННОГО ПЕРЕХОДА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	45
7. Madayeva Mo'tabarxon Amanullayevna MAQOLLAR – XALQ MADANYATINING KO'ZGUSI.....	57
8. Alikulov Xusniddin Akbarovich ZAMONAVIY EKOLOGIK PARADIGMALAR: ANTROPOSENTRIK VA EKOSENTRIK YONDASHUVLARNING FALSAFIY TAHLILI.....	62
9. Maxkamov Ulug'bek Abdugapporovich DIALOG FENOMENINING TALQINI.....	72
10. Narziev Farxod Qurbon o'g'li MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NEGIZIDA NUKLEAR OILADAGI AVLODLAR MUNOSABATI.....	80
11. Курбанбаева Улбосын Жумагалиевна УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ КАК ФИЛОСОФСКО-ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ.....	87
12. Suyunova Noila G'ayrat qizi MORTIMER ADLER TA'LIM FALSAFASIGA OID QARASHLARINING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	94


ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**

Yuldasheva Farida Xujamkulovna,
falsafa fanlari doktori, professor,
Andijon davlat universiteti
E-mail: yuldasheva_adu@mail.ru

**GLOBALLASHUV VA SIVILIZATSIYA: TARAQQIY ETISHI VA
MUNOSABATLARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18088583>

ANNOTATSIYA

Maqolada tarixan sivilizatsiya va globallashuvning paydo bo'lishi, bu ikki obyektiv jarayonning dialektik aloqadorligi, xususiyatlari va mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri, obyektiv va subyektiv omillari, rivojlangan va an'anaviy jamiyatlarning va O'zbekistonning globallashuvga munosabati hamda bu jarayonlarning ilmiy-falsafiy adabiyotlarda aks etganligi taxlil etilgan.

Kalit so'zlar: tarix, sivilizatsiya, globallashuv, qadimgi sivilizatsiya va globallashuv, lokal sivilizatsiya, madaniyat, qadriyat, O'zbekiston.

Yuldasheva Farida Khujamkulovna,
doctor of philosophical sciences, professor,
Andijan state university
E-mail: yuldasheva_adu@mail.ru

**GLOBALIZATION AND CIVILIZATION: DEVELOPMENT AND
INTERRELATIONS****ABSTRACT**

This article analyzes the historical emergence of civilization and globalization, the dialectical interconnection between these two objective processes, their characteristics and essence, their role in social development and their impact on socio-economic progress, as well as their objective and subjective factors. Particular attention is paid to the attitudes of developed and traditional societies, including Uzbekistan, toward globalization, and to how these processes are reflected in scientific and philosophical literature.

Keywords: history, civilization, globalization, ancient civilization and globalization, local civilization, culture, values, Uzbekistan.

Юлдашева Фариди Хужамкуловна,
доктор философских наук, профессор
Андижанский государственный университет
E-mail: yuldasheva_adu@mail.ru

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ЦИВИЛИЗАЦИЯ: РАЗВИТИЕ И ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются проблемы возникновения цивилизации и глобализации, диалектическая взаимосвязь данных объективных процессов, их особенности и сущность, их роль в развитии общества и влияние, объективные и субъективные факторы, отношение развитых и традиционных обществ, Узбекистана к глобализации и также отражение данных процессов в научно-философской литературе.

Ключевые слова: история, цивилизация, древняя цивилизация и глобализация, глобализация, локальная цивилизация, культура, ценности, Узбекистан.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, hozirgi kunda hayotimizning ajralmas xususiyatiga aylangan ijtimoiy muammolar qatorida globallashuv yetakchi hisoblanadi. O'z hayotida globallashuvning ta'sirini xis qilmayotgan ijtimoiy subyektlar deyarli qolmadi. Ularning qaysi biri dunyo hamjamiyatiga qo'shilish va progressiv taraqqiyot yo'lidan borish yo'lini tanlasa, albatta, bu obyektiv jarayonga integratsiya bo'lishdan boshqa yo'li yo'q. Turli davlatlar va millatlar globallashuvga qo'shilish orqali yuksak taraqqiyot darajasiga erishishlari mumkin. Uning yanada taraqqiy etib borishi albatta, sivilizatsiyaga ham ta'sir ko'rsatib, uning yangi xususiyatlar kasb etib borayotganligiga sabab bo'lmoqda [20;21;7]. Globallashuv tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida hodisa sifatida yuzaga chiqib, ijtimoiy munosabatlarning integratsiyasi natijasida obyektiv, qonuniy va ziddiyatli xususiyatga ega bo'lgan, o'zini tobora yaqqol va jadal sur'atlar bilan namoyon etib borayotgan ko'p qirrali va kuchli dinamikali jarayondir.

Jamiyatlar o'z taraqqiyotida yagona tarixga, demak global dunyoga intiladi. Globallashuv barcha ijtimoiy jarayonlarning ajralmas xususiyatiga aylandi. Uning ta'siri hamma joyda va hamma narsada aks etmoqda. Uning dinamikasi bir vatda imkoniyatlarni va ziddiyatlarni o'zida namoyon etadi.

Globallashuv tarixiga e'tibor bersak, u doim ham sivilizatsiyalar taraqqiyoti bilan yonma-yon kechgan. Sivilizatsiya va globallashuv jarayonlari tarixan o'zaro bog'liq bo'lib, bir-biri uchun determinant sifatida namoyon bo'lib kelgan. Bunda ba'zan sivilizatsiya, ba'zan globallashuv yetakchilik qilgan. Ularning kuchli dinamikasi turli jamiyatlar va millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy va boshqa soxalarining transformatsiyasiga olib kelayotgani aniq. Mazkur jarayonlarning subyektiv omillari albatta, turli jamiyatlar va ularning a'zolari, davlatlar, millatlar bo'lib, ularning amalga oshirayotgan ijtimoiy faoliyati, faolligi qayd etilgan obyektiv jarayonlarning xususiyatlarini belgilab bermoqda.

Metod va metodologiya. Mazkur maqolada sivilizatsiya va globallashuvning dialektik aloqadorligi muammosini taxlil etishga harakat qildik. Bu masalalar bo'yicha ilgari ham maqolalar yozgan edik [25;26;27;28]. Hozirgi davrda bu ikki obyektiv jarayonlarning moxiyati va ularning o'zaro determinantlik xususiyatlari ham ancha o'zgarib ketdi. Shunga ko'ra ularni zamonaviy globallashuv va sivilizatsiyaning o'zaro bog'liqligi muammosini ilmiy-falsafiy taxlil etish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bunda ijtimoiy subyektlarning ishtiroki turlicha: ayrim davlatlar va millatlar kuchli ta'sirga ega bo'lsa, boshqalari ishtirokchi yoki shunchaki kuzatuvchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Millatlar va mamlakatlarning bu sohadagi faolligi, dunyo sivilizatsiyasining bugungi bosqichidagi o'rni va umuman, faoliyati bir qator obyektiv, hamda subyektiv omillar bilan bog'liq. Bu nuqtayi nazardan sivilizatsiya va globallashuvning o'zaro bog'liqligini falsafiy taxlil etish muhim hisoblanadi va bunda dialektik va aksiologik yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, analogiya, prognoz metodlaridan foydalanish mumkin.

Adabiyotlar taxlili va diskussiya. Falsafa tarixida sivilizatsiya muammosini tadqiq etilishiga e'tibor bersak, uni ko'plab mutafakkirlar tomonidan o'rganilganligini anglaymiz. Ma'lumki, sivilizatsiya lotinchadan "silvaticus", "yovvoyi" ma'nosida keyinroq "shaharlik" ma'nosida qo'llanilib kelingan.

Falsafa, sotsiologiya, qtisodiyot va tarix falsafasida ulkan ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan XIV asrda yashab o'tgan Sharq mutafakkiri Ibn Xaldunning sivilizatsiya, iqtisodiyot, ehtiyojlar, ishlab chiqarish va iste'mol muammolari bo'yicha hozirgi zamon uchun ham ulkan ahamiyatga ega

bo'lgan "Muqaddima" nomli asar yaratgan. "Ibn Xaldun fan tarixida birinchi marta jamiyatning qonuniy progressiv taraqqiyoti kishilarning ishlab chiqarish faoliyati orqali quyi fazadan yuqori fazaga o'tishi nazariyasini ilgari surdi". [9.-B.7].

Ibn Xaldunning sivilizatsiya to'g'risida aytgan fikrlari hozirgi davrda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mutafakkirning fikricha, jamiyat a'zolarining birgalikda amalga oshiradigan ijtimoiy hayoti ikki turda amalga oshadi: oddiy, o'zaro bog'lanmagan va past darajada bo'ladigan "beduinlar hayoti" – hayotning quyi darajasi va turli-tuman "shahar hayoti" - hayotning yuqori bosqichidir. U beduinlar hayotini tavsiflab, ularni quyi fazadan yuqoriga o'tish, ya'ni shaharga borib yashash uchun tayyorgarlik ko'rib, moddiy boylik yig'adilar, shahar hayoti, undagi qulaylik, boylikka o'rgana boradilar va shaharlashadilar, shaharcha tabiiy hayotga kirib boradilar va to'la u yerga ko'chib keladilar [9.7-8], deb hisoblaydi. Beduinlar hayotini a)dehqonchilik yoki hunarmandchilik xo'jaligi; b)hayot va madaniyatning past ishlab chiqarish va iste'mol darajasi; v)ma'lum muhit va sharoitga bog'lanib qolganlik; g)shaharga siyosiy va iqtisodiy qaramlik belgilaydi. Shahar hayotini esa a)hunarmandchilik yoki savdo-sotiq bilan shug'ullanish; b)xo'jalik, iste'mol va madaniyatning yuqori darajasi; v) xavfsizlikning yuqori darajasi; g)iqtisodiy va siyosiy jihatdan beduinlar hayotiga bog'liq emaslik belgilaydi. Taraqqiyotni aholi sonining o'sishi, shaharda ishchi kuchining to'planishi va mehnatning, ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanishi belgilaydi. Ikkala fazaning ham o'ziga xosligi va shart-sharoitlari kishilarning psixologik xususiyatlari, ko'nikmalari va axloqiy qoidalarini belgilaydi [9].

Ibn Xaldunning yondashuviga ko'ra sivilizatsiya va uning taraqqiyoti kishilarning moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mahalliy va o'ziga xos mehnat faoliyati va moddiy boylik yig'ishlari bilan bog'liq. Bu jarayonlar ularning turmush tarzini ham belgilaydi. Ibn Xaldun shahar hayoti va uning qulayliklarini sivilizatsiyaga yaqin madaniy hayot sifatida tavsiflab, uni "umron" deb ataydi [13.342-347].

Sivilizatsiyani 1766 yilda fransuz tarixchisi L.Fevr, 1773 yilda Yevropa ma'rifatparvarlari yovvoyilik, qo'pollikka qarshi "shaharlik", "shaharlashish" ma'nosida qo'llaganlar. Antropolog olim L.Morgan va uning ketidan F.Engels "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asarida sivilizatsiya varvarlik bosqichidan insoniyatning jamiyat bosqichiga o'tishi tarzida talqin etdilar.

XIX asrdan boshlab sivilizatsiya ko'pchilikka aloqador xodisa sifatida anglashila boshlandi va yanada dolzarb muammoga aylandi. Sivilizatsiyaga bag'ishlab ko'plab ilmiy asarlar yaratildi. Xususan, F.Gizo "Yevropada sivilizatsiya tarixi" (1828), so'ngra "Fransiyada sivilizatsiya tarixi"ni (1830), R.Bokl "Angliyada sivilizatsiya tarixi"ni (1857-1861), Shpengler "Yevropa quyoshining so'nishi", Toynbi "Tarixni tadqiq etish", N.Danilevskiy "madaniy-tarixiy tur", O.Shpengler "yuksak madaniyat", A.Toynbi tarixning asosini tashkil etuvchi "lokal sivilizatsiya", P.Sorokin "madaniy supertizim", F.Brodel esa "madaniy-tarixiy hudud" sifatida tasvirlaganlar.

Albatta, sivilizatsiyaga berilgan ta'riflar turli-tuman, umumiy ma'noda sivilizatsiya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, diniy, ilmiy-texnologik, axborot va boshqa soxalar taraqqiyotining ma'lum bosqichi tushuniladi.

XX asrda sivilizatsiya muammosiga tarixiy materialistik yondashuv shakllandi va taraqqiyotning asosida iqtisodiy hayot, moddiy ishlab chiqarish asosiy o'rin egallashi e'tirof etildi va jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti masalasiga yetarli e'tibor qaratilmadi. O'zbek olimlari sivilizatsiya, milliy madaniyat, ma'naviyat, axloq, qadriyatlar soxasini falsafiy tadqiq etishga jiddiy yondashib, ko'plab ilmiy-falsafiy asarlar yaratdilar [1;3;11;22;23;26].

Rossiyalik faylasuf olimi I.Vasilenkoning fikricha, sivilizatsiya murakkab tizim asosida tashkil topgan jamiyat bo'lib, madaniy an'analar, din, tilni bir butunlikka birlashtirishi asosida amalga oshadi [7.-B.355]. Yana bir rossiyalik olim Yu.Yakoves sivilizatsiya muammosiga bag'ishlab ko'pchilikka tanish "Sivilizatsiyalar tarixi" nomli falsafiy asarini yozgan. Olimning fikricha, "Dunyo sivilizatsiyasi insonning ma'lum ehtiyojlar, qobiliyatlar, bilim, ko'nikmalar va manfaatlar darajasi va ishlab chiqarishning texnologik va iqtisodiy usuli, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar qurilmasi, ma'naviy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadigan insoniyat tarixining bosqichi; gap asosan o'ta uzoq davrga (ko'p asrlik) mo'ljallangan tarixiy sikl haqida ketmoqda" [20.B.41].

Sivilizatsiya dunyo miqyosida va lokal - yakka, alohida sivilizatsiya tarzida mavjud. S.Xantington “Lokal sivilizatsiya – dunyo butunligiga bevosita kiruvchi va unga ta’sir etuvchi ulkan va murakkab tuzilgan uyushmadir”, deb ta’kidlaydi. Madaniy umumiylik, urf-odatlar, til, tarix, din, ijtimoiy tuzilmalar va shaxsning o’zini madaniy va subyektiv identifikatsiyalashi lokal sivilizatsiyaning belgilari, deb hisoblaydi [16.33].

Fikrimizcha, lokal sivilizatsiya bir mintaqada yashaydigan millatlar, elatlarning madaniyati, qadriyatlarini, tili, dini, urf-odatlarini kabilarni o’z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, Markaziy Osiyo mintaqasi, Yevropa yoki Afrika mintaqasi va boshqalar.

Ayrim tadqiqodchilar yagona sivilizatsiyaning shakllanishi murakkab jarayon va u haqda gapirishga hali erta va aslida, yagona sivilizatsiya yetakchi mamlakatlar intellektual elitasining o’ylab topgan orzusi va u turli-tuman jamiyatlarning unifikatsiyasiga (bixillashuviga) olib keladi, deb hisoblaydilar: “Umuminsoniy sivilizatsiya to’g’risida faqat tabiiy va ijtimoiy qonunlarga mos ravishda rivojlanayotgan va umumiy manfaatlarga ega bo’lgan aqlli mavjudotlar hamjamiyatining planetada mavjudligi ma’nosida gapirish mumkin xolos. Insoniyat hamjamiyati tarkibining o’zi bir xil emas, uning tarixini umumplanetar yondashuvdan kelib chiqqan holda tushunish mumkin emas ... yagona dunyo sivilizatsiyasi konsepsiyasi paydo bo’lganining o’zi taraqqiyotning ko’p variantli ekanligini inkor etadi. ... uning bayrog’i ostida yana unifikatsiyalashgan taraqqiyot g’oyasi taklif etilmoqda” [14.83-84].

Asosiy qism va natijalar. Falsafiy nuqtayi nazardan “sivilizatsiya” o’ta abstrakt bo’lib, u ulkan makon va zamonda mavjud mamlakatlar va ularda yashovchi xalqlar hamda millatlarni yagona tizimga birlashtirgan holda anglashni taqozo qiladi. Sivilizatsiyaning zamon va makonda chegaralarini hatto nazariy belgilash ham murakkab. Bunga “xristian sivilizatsiyasi”, “g’arb sivilizatsiyasi” yoki “musulmon sivilizatsiyasi” tushunchalari misol bo’ladi.

Ma’lumki, lokal sivilizatsiya yoki lokal madaniyat tushunchalari biz taxlil etayotgan muammo doirasida qaralsa, biror millatning, xususan, o’zbeklarning globallashuv va sivilizatsiya jaaryonlariga qanday aloqador ekanligini o’rganish nazariy jihatdan murakkab. Millatlar boshqa millatlar va xalqlarga aloqadorligi asosida dunyo sivilizatsiyasiga va albatta, globallashuv jarayonlariga qo’shilishi va ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy mavqega ega bo’lishi mumkin. Biz bu yerda rossiyalik olimlarning fikriga qo’shilamiz. Taraqqiyotning ayrim davrlarida mamlakatlar va millatlar ma’lum sivilizatsiyaga tegishli yoki yaqin bo’lishi, unga intilishi, ba’zan o’zi alohida sivilizatsiya sifatida namoyon bo’lishi mumkin [19.119].

Taniqli olim I.Ergashevning quyida aytgan fikrlari diqqatga sazovor: “Sivilizatsiya-har bir xalqning o’ziga xos tarixiy-madaniy rivojlanishi, shakllangan qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar, tafakkur tarzida namoyon bo’ladi. ... Dunyoning yaxlitligi uning xilma-xilligini inkor etmaydi. Aksincha, ana shu turli xil madaniyat, din, ilm-fan va adabiyot, san’at uni boyitadi” [22.40].

Sivilizatsiya bir-biriga o’xshash madaniyatlar yoki aksincha, o’ziga xos madaniyat va ma’naviyat asosida yuzaga keladi. Dialektik xilma-xillikka asoslangan o’ziga xoslik va madaniy xilma-xillik uni yanada boyitadi. Boshqacha aytganda, turli-tumanlikdan iborat birxillik moxiiyatan boyroq. Jaxon tarixiy makonida yashayotgan har bir millat o’ziga xos madaniyat, ong, noyob aql-zakovatga ega. Ularni bir-biridan ustun qo’yib bo’lmaydi. “Yevropa sivilizatsiyasi”, “musulmon sivilizatsiyasi”ga birlashgan xalqlarning yagona dinidan boshqa barcha soxalarda: fan, axloq, san’at, ta’lim va boshqalarda bir-biridan farq qilishini ta’kidlash mumkin. Har bir xalq jaxon ijtimoiy makonida o’ziga xos o’ringa, mavqega ega. Ularning o’zaro ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlari dunyo sivilizatsiyasining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

“Sivilizatsiya” tushunchasi progressiv taraqqiyotni anglatadi. Ammo shu bilan birga yagona sivilizatsiya tizimida unga qo’shilgan xalqlarning progressiv taraqqiyot hamda turg’unlik davrlari ham kuzatiladi. Ko’plab xalqlarning Renessans davrlarigacha va undan keyingi taraqqiyoti kuzatilganda, sivilizatsiya va globallashuvning xususiyatlari hamda o’zaro munosabatlari tarixning turli davrlarida farq qilganligini ko’ramiz.

Albatta, sivilizatsiyaning tarixiy ahamiyati u egallagan makon va zamonga ham bog’liq. Sivilizatsiya tarzida anglashilgan tarixiy jarayonlar va hodisalarning ayrimlari o’z davriga nisbatan hozirda moxiiyati va ahamiyati o’zgacha. Savol tug’iladi: bugun tarixiy sivilizatsiyalarning ahamiyati

qanday? Ularning asosiga yagona elementni qo'yish mumkinmi? Masalan, din, ilm-fan yoki boshqalarni. Sivilizatsiyaning ahamiyati uning tarixiy taraqqiyotdagi o'rni va globallashuvga qo'shilishi bilan bog'liq. Masalan, islom omili, G'arb Renessans davrida ilm-fan va kapitalizm taraqqiyoti. Bunda ma'lum tarixiy davrda bitta omil asosiy bo'lib, taraqqiyotga kuchli ta'sir etgan bo'lishi, mazkur omillarning tarqalish davri ba'zan qisqa bo'lgani xolda tarixiy ahamiyati ulkan bo'lishi mumkin. Demak, sivilizatsiya tizimini tashkil etuvchi bitta element ham sivilizatsiya va globallashuv taraqqiyotida ulkan ahamiyat kasb eta oladi. Masalan, "Makka va Madinada VII asrning 20-30 yillarida bo'lib o'tgan hodisalar, bor-yo'g'i qandaydir yigirma yil ichida butun dunyo tarixiy ahamiyatiga ega bo'lgan o'zgarishlarga olib keldi» [13.140].

Sivilizatsiyaga bitta omil asosida emas, sivilizatsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan ko'plab omillarni tizimiy yondashuv asosida taxlil etish, uning makon va zamonda egallagan o'rni, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan elementlarini, xox u din bo'ladi yoki madaniyatni ajratib olish nazariy-metodologik jihatdan to'g'ri bo'ladi. "Dunyo xalqlari sivilizatsiyasiga faqat birgina omil bilan to'g'ri yondashib bo'lmaydi. Bunda uning mohiyati to'laligicha anglanmay qoladi. Bundan tashqari sivilizatsiyalar tadrijiyligiga qandaydir madaniyatlar almashinuvining natijasi sifatida yondashish, u yoki bu sivilizatsiyaning ko'rinishi, uning boshlanishi va oxiri bor (Shpengler), deb qarash ham dunyo rivojlanishining uzluksizlik, tadrijiy rivojlanish, vorisiylik qonuni mantig'iga to'g'ri kelmaydi" [21.40-41]. Muammo sivilizatsiya ahamiyatiga molik hodisalarni ajratib olish va ularning sivilizatsiyaga xos xususiyatlarni kasb etib borishini anglab yetish. Fikrimizcha, kompleks yondashuv muhim, lekin ba'zi xollarda sivilizatsiya taraqqiyotida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan omillarga konkret yondashuv talab etiladi.

Avvalgi maqolalarimizda sivilizatsiyani tavsiflab, uni iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayoti, an'analari, turmush tarzi, ehtiyojlari bir-biriga yaqin o'nlab davlatlar va millatlarning bir xil tizimga birlashuvini aks ettiradi, deb ta'kidlagan edi [26;27]. Zamonaviy taraqqiyot sur'atlari, dinamikasi sivilizatsiyaning xususiyatlari va moxiyatini ham transformatsiyasiga olib kelmoqda va bu jarayon globallashuvga ham kuchli ta'sir etayotgani aniq. Bugungi kunda ko'proq mintaqaviy globallashuv oldinga chiqmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari bir necha o'n yillar davomida kuchli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishmagan edilar. Lekin hozirgi kunda ularning barcha soxalarda o'zaro munosabatlarining kengayib borayotganligi va bir-birining progressiv rivojlanishida muhim o'rin egallay boshlaganining guvoxi bo'lmoqdamiz.

Sivilizatsiya taraqqiyoti globallashuvdan ajralgan xolda amalga oshmaydi. Bu ikki obyektiv jarayonlar hamda ularni tashkil etuvchi elementlar o'zaro bog'liq bo'lib, ba'zan bir-birining taraqqiyotini belgilab bersa, ba'zan o'zaro ziddiyatga uchraydilar.

Avval ta'kidlaganimizdek, sivilizatsiya va globallashuvning o'zaro aloqadorligi nuqtayi nazaridan qaralganda, sivilizatsiyalar taraqqiyoti, ularning dunyo miqyosida shakllanishi globallashuvning yuzaga kelishi va rivojiga ta'sir etadi. Sivilizatsiya tizimiga birlashgan elementlarning globalashuvga qarshi kurashish uchun salohiyati yetmaydi. Oллоh, Iisus Xristos yoki Budda nomi atrofiga birlashuvchi kishilar bir vaqtning o'zida ham sivilizatsiya, ham globallashuv taraqqiyotining subyektiv omili hisoblanadi [27.37].

Bugungi taraqqiyot kontekstida qaralsa, "globallashuv", "sivilizatsiya" tushunchalari o'zgarib, bu jarayonlarning tarixiy moxiyatini to'la aks ettirmayotgani aniq. Ko'pchilik unga boshqa ma'no bera boshladi. Chunki globallashuv sharoitida yakka xolda taraqqiy etadigan xalqlar yoki davlatlar deyarli qolmadi. Ular globallashuv jarayoniga qo'shilish orqaligina dunyo ijtimoiy tizimiga integratsiya bo'lib, ma'lum mavqega ega bo'lishi aniq bo'ldi. Bu nuqtayi nazardan sivilizatsiya va globallashuvning chegaralarini makon va zamonda aniqlash murakkab, chunki bunday chegaralar cheksiz va ziddiyatli. Taniqli faylasuf A.Begmatov quyidagicha fikrlaydi: "Aytaylik, "islom tamadduni" (sivilizatsiyasi) atamasi bir milliarddan ortiq aholidan iborat xalqlar madaniyatiga nisbatan qo'llaniladi. Bu madaniyatlarni umumiy tamaddunga birlashtirish uchun olingan asos - dindir. Lekin, Markaziy Osiyo musulmonlari bilan Arab mamlakatlaridagi yoki Indoneziya yoxud Filippin musulmonlari o'rtasida umumiylikdan ko'ra tafovut ko'proq" [3.35].

Globallashuvning taxlili ustida tadqiqot olib borayotgan olimlar, tadqiqotchilarning aksariyati bu jarayonni ko'proq turli davlatlar va xalqlar uchun global muammolarni olib keluvchi,

ularning milliy manfaatlariga zarar keltiruvchi salbiy jarayon sifatida tavsiflaydilar. Lekin tarixan globallashuvning natijalari (ijobiy jihatlari, imkoniyatlari) va oqibatlarini (ziddiyatlari, salbiy jihatlari) solishtirsak, birinchi xolat ko'proq amalga oshib kelgan. Bu yerda masala globallashuv jarayonida ishtirok etayotgan subyektlar - davlatlar, millatlar va yetakchilarining ishtiroki qanday bo'lishi bilan bog'liq. O'z manfaatlarini va ehtiyojlaridan kelib chiqib, globallashuvning faol ishtirokchilari tarixiy taraqqiyotida ulkan imkoniyatlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Globaldashuv jarayonlarining mohiyati faqat salbiy emas. U turli jamiyatlar va uning a'zolari uchun yangi imkoniyatlar olib kelmoqda. "So'nggi o'ttiz yil davomida shunday tarixiy vaziyatning guvohi bo'ldik: biz endi butun dunyo madaniyatini o'zlashtira olamiz. Avval, masalan, siz xitoylik bo'lib tug'ilganingizda, siz butun umr bitta madaniyat ichida, ko'p hollarda bitta chekka qishloqda, ba'zan bitta uyda yashab, sevib va bir necha qarich joyda hayotdan ko'z yumar edingiz. Lekin biz bugun shunchaki harakat erkinligiga emas, har qanday mashhur madaniyat ichiga sho'ng'ib, uni o'zlashtirish erkinligiga egamiz. Bugungi global qishloqqa aylanib qolgan dunyoda barcha madaniyatlar ochiq va o'zaro bir-biriga singishlari mumkin. Bugun bilimning o'zi global. Butun tarix davomida birinchi marta insoniyat to'plagan bilimni egallash imkoniyatiga ega bo'ldik: butun insoniyatning bugungacha asosiy zamonaviy va postzamonaviy sivilizatsiyalar kashfiyotlari, tajribasi, donoligi va fikrlashi bugun har bir inson uchun ochiq" [11.10].

Xalqimizning hayotida so'nggi 10-15 yil ichida yuz bergan o'zgarishlarga nazar tashlasak, uning qanchalik tez va shiddat bilan o'zgarib borayotganligini ko'ramiz. Bu holat hayotimizning barcha yo'nalishlarida: iqtisodiy, madaniy - ma'naviy, bilim olish, kundalik turmush tarzi, kiyinish, dam olish va boshqalarda aks etmoqda. Ushbu jarayonning sur'atlariga milliy mentalitetimizdagi ochiqlik, tolerantlik hamda jamoaviylik xususiyatlari ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.

S.Xantingtonning fikricha, urushlarning sabablari sivilizatsiyalar o'rtasidagi konfliktlardir. Uning ko'pchilikka tanish bo'lgan "Sivilizatsiyalar to'qnashuvimi?" nomli maqolasida sivilizatsiyalar o'rtasida asrlar davomida yuzaga kelgan tarixiy, til, madaniy, an'anaviy va diniy tafovutlarning mavjudligi, ularning kuchayib borayotgani va bu jarayonlar sivilizatsiyalar to'qnashuviga olib kelishi haqida fikr yuritiladi. Maqolada urushlarning sabablari ham madaniy xususiyatlarga asoslangan sivilizatsiyalararo konfliktlardir. Madaniy xususiyatlar barqaror bo'lib, ularning zamirida yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal etish murakkab, deb fikr aytilgan. "Insoniyatni ajratib turgan eng muhim chegaralar, ixtiloflarning yirik manbalari madaniyat bilan belgilanadi. Millat – davlat xalqaro ishlardagi bosh subyektligicha qoladi, lekin umumbashariy siyosatning katta mojarolari turli sivilizatsiyalarga tegishli millat va elatlar o'rtasida yuzaga keladi.

Madaniyatlararo to'qnashuv jahon siyosatining yetakchi omiliga aylanadi. Sivilizatsiyalar orasidagi ajralish nuqtalari kelgusida frontlarning aynan o'zginasidir. Madaniyatlararo mojarolar hozirgi dunyodagi global nizolar evolyutsiyasining yakunlovchi bosqichi bo'ladi" [16]. S.Xantingtonning fikricha, yuz yillar davomida tarixni davlatlar yaratadilar. XX asrda ularning o'rnini totalitar mafkura egalladi, XXI asr bo'sag'asida siyosatni madaniyatlar to'qnashuvi belgilaydi. Sinfiy yoki mafkuraviy konfliktlarda "Sen kim tomonidasan?", degan savolga inson o'zining tanlovi asosida javob berishi mumkin bo'lgan bo'lsa, etnik va diniy konfliktlarda u "Sen o'zi kimsan?", degan savolga javob berishi zarur. Ya'ni gap avvaldan berilgan va o'zgarmaydigan narsalar haqida ketyapti [16].

Shu bilan birga Xantington Amerikani dastlab egallagan kishilar bu immigrantlardan farq qilgan holda yangi jamiyat qurilishini amalga oshirishga intiluvchi o'ziga xos axloqiy doktrinaga ega bo'lgan mustamlakachilar hamjamiyatini tashkil etadi, immigrantlar esa yangi jamiyat yaratmaydilar, faqat bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradilar, deb ta'kidlaydi [17.177-182]. Bundan tashqari Xantingtonning fikriga ko'ra amerikaliklar o'ziga xos, tanlab olingan (saralangan) xalq bo'lib, ularning hayotiy tamoyillari universalidir, demak, bu tamoyillarning tarqalishi va Amerika ekspansiyasi ham o'zini oqlaydi. Immigrantlar rolining jamiyatda ortib borishi amerikalashtirish g'oyasiga qarshi. Ularning katolik dini esa amerikaliklarning diniy identifikatsiyasiga (protestantlikka) ziddir [17.177-182].

Ko'rinib turibdiki, muallif ushbu asarida endi sivilizatsiyalar to'qnashuvi haqida emas, aksincha, Amerika madaniyati va turmush tarziga amerikalik bo'lmagan ko'p sonli

immigrantlarning ta'siridan xavotirga tushmoqda. (Bu yerda Xantingtonni Amerikadagi 1950 y. tashkil etilgan "Mavjud xatarlarni o'rganish komiteti" nomli uyushmaning a'zosi ekanligini eslatib o'tish lozim. Bu uyushma bo'lishi mumkin bo'lgan, faraz qilinayotgan xatarlarni o'rganish bilan shug'ullanadi).

Sivilizatsiya va globallashuv munosabatlarini taxlil etishda ko'proq alarmistik konsepsiyalarga ham duch kelamiz. O.Tofler kelajak to'g'risida pessimistik farazlar qilgan. U tarixda uchta bosqich to'liq: birinchisi—agrar sivilizatsiya, ikkinchisi – industrial sivilizatsiya va XX asrdan sanoat inqilobiga asoslangan yangi sivilizatsiya - uchinchi to'liq. Uchinchi to'liq an'anaviy sivilizatsiyaga zid bo'lib, uni butunlay izdan chiqarib yuboradi, chunki u yangi turmush tarzini olib keladi. O'zgarishlar kelajakni "shok" holatiga tushirib qo'yadi [2. 22,40].

Tarix davomida turli davlatlar va xalqlar o'rtasida muntazam urushlar bo'lib turgan. XX asrga kelib o'nlab mamlakatlar tortilgan jahon global urushlari yuz berdi. Avvalgi tadqiqotlarimizda ta'kidlab o'tganimizdek [25;26;27;28;29]. birinchi jahon urushida 38 mamlakat, 70 milliondan ziyodroq askarlar ishtirok etib, halok bo'lganlar soni 10 mln., yarador bo'lganlar esa 20 mln.ni tashkil etdi. Ikkinchi jahon urushi esa undan ko'ra qonliroq bo'ldi: unga o'z istaklariga qarshi tarzda hududida dunyoning 80 % aholisi yashaydigan 61 nafar davlat tortildi. Urush harakatlari Yevroosiyo, Shimoliy Afrika va Okeaniyaning ulkan quruqlik va suvlik hududini egalladi. Ularda jami 110 mln.dan ziyod kishi ishtirok etdi va 65 mln.ga yaqin kishi halok bo'ldi. Qayd etilgan urushlarning sababi madaniyat yoki sivilizatsiya doirasida etnik, milliy yoki diniy to'qnashuvlarga aloqador emas. Bu urushlar sivilizatsiyalar to'qnashuvi emas. Sivilizatsiya aksincha, turli mintaqalar, davlatlar va millatlarni yagona madaniy hayot, din va boshqalarga birlashtiradi. Natijada globallashuv yanada taraqqiy etadi. Unga yanada ko'proq mamlakatlar va xalqlar tortiladi.

Globalashuvning ildizlari qadimiy, madaniyatlar va sivilizatsiyalar yuzaga kelishi bilan harbiy, diniy globallashuv paydo bo'lgan. O'zaro global aloqalar shakllangan. Bunga Buyuk Ipak yo'li misol bo'ladi. Bu yo'l turli xalqlar taqdirida ulkan rol o'ynagan. Rim olimi G.Pliniy "Tabiat tarixi" asarida miloddan avvalgi V- asrda G'arbga Buyuk ipak yo'li orqali pillachilik tarqalgan. Jumladan, Rim imperiyasiga olib kelingan ipak matolar uchun Rim 3,5 ming tilla tangasini sarf etgan. Uning natijasida Rimda tanga tanqisligi yuzaga kelib, hukumat ipak matolar va boshqa mahsulotlarni cheklash haqida qaror qabul qilishga majbur bo'lgan [18.91-99]. Bu yo'l orqali bog'langan mamlakatlarda yangicha turmush tarzi, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari paydo bo'lgan. Fikrimizcha, qadimiy iqtisodiy, madaniy global munosabatlar yuzaga kelgan, sivilizatsiyalarning o'zaro aloqalari shakllangan.

Tarixchi olim A.Xo'jayevning ta'kidlashicha, Turkiya va Sharqiy Turkiston orqali Xitoyga buddaviylik, VII-VIII asrdan islom kirib kela boshladi. Xitoyda "dungan", "tungan" (turib qolgan so'zidan kelib chiqqan), deb ataluvchi yangi etnos shakllangan. Ushbu etnos tarkibiga turkiylar, arablar, forsiylar va boshqa xalqlar vakillari qo'shilganlar. Hozirda soni 8 mln.ga yaqin ushbu etnosni islom dinining Xitoyga tarqalishi natijasida shakllangan, deb qarash mumkin [18.91].

O'rta Osiyoga mo'g'ullarning bostirib kelishi va tarixda yuz bergan boshqa urushlar ham sivilizatsiyalar to'qnashuvining natijasi emas, harbiy - siyosiy, xududiy konfliktlar natijasi bo'lib, ularda turli shaxslarning maqsad va manfaatlariga katta rol o'ynagan.

Yuqorida qayd etilganidek, sivilizatsiyaning subyektlarini turli davlatlar, xalqlar, millatlar tashkil etadi. Lekin ular urushlar va konfliktlarning sababchilari emas, urushlar davlat yetakchilari, siyosiy va harbiy kuchlarning maqsad - manfaatlaridan kelib chiqib yuz bergan. Ular ba'zan bitta din doirasida (Yevropada yuz yillik urush) yuz bergan. Biz avval aytgan fikrimizni yana takrorlamoqchimiz: "... sivilizatsiyalar o'rtasida to'qnashuv bo'lmasligining sababi quyidagicha: turli madaniyat va sivilizatsiyalar asosida din yoki ilm-fan bo'ladimi, axloq yoki san'at bo'ladimi, ushbu sivilizatsiyalarning barchalari ham milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Bunday qadriyatlarining mohiyati esa faqat ijobiy bo'lib (chunki ular ijobiy mohiyatga ega bo'lganligi uchun ham qadriyatdir), gumanizmga va progressiv taraqqiyotga xizmat qiladi. Hech qaysi millatning madaniyati yoki dinida boshqa millatga qarshi kurashish g'oyasi yo'q" [25.36-32].

Sivilizatsiyalar gumanizm, do'stlik, o'zaro xurmat, tolerantlik kabi umuminsoniy qadriyatlar - tamoyillarga asoslangan. Dinlar turli-tuman, lekin ularning g'oyalari o'xshash, mohiyati bir xil:

tinchlik, mehnatsevarlik. yaratuvchilik, inson taraqqiyotiga yoʻnalgan va ezgulikni targʻib qiladi. Shuning uchun ham dinlar keng tarqalgan. “Ezgulikka yoʻnaltirilgan har qanday gʻoya, hoh u diniy, hoh dunyoviy boʻlsin - bunyodkor gʻoyadir. Bunday gʻoyalarni bir-biriga qarshi qoʻyishgva harakat qilish – besamar” [22.14].

Globalashuv sharoitida baʼzan iqtisodiy, siyosiy yoki boshqa munosabatlar asosiy hisoblanadi va bu xolat fikrimizcha, davr xususiyati va ehtiyojlari bilan bogʻliq. Soʻnggi qisqa 20-30 yil davomida sivilizatsiya va globalashuvning surʼatlari tezlashdi, bu jarayonlar oʻzaro munosabatlarining xususiyatlari ham ancha oʻzgardi. Lekin bugun bu fikrimiz oʻzgargan. Bu jarayonlarning zamonaviy xususiyatlarini oʻrganish davomida bizning ham mazkur muammolarga munosabatimiz, ular toʻgʻrisidagi fikrlarimiz oʻzgardi.

Avlodlar oʻrtasida bogʻliqlik, vorisiylikning xususiyatlari ham oʻzgarib, boshqacha moxiyatga ega boʻlib bormoqda. Globalashuv sharoitida anʼanaviy davlatlarda avlodlar oʻrtasidagi bogʻliqlik va vorisiylik davri liberal davlatlarga nisbatan davomiyroq edi. Qandaydir 20-30 yil muqaddam avlodlar oʻrtasidagi bogʻliqlik masofasining zamondagi chegaralari jamoaviylik xos boʻlgan anʼanaviy jamiyatlarda deyarli bir avlodning yoshiga, yaʼni 25-30 yilga teng boʻlgan. Lekin bu holat hozirgi kunda keskin oʻzgargan. “Haqiqatdan ham hozirgi tez oʻzgarib borayotgan dunyoda 10-12 yilga farq qiluvchi yoshdagi kishilarni har xil avlodlarga tegishli, deb hisoblash mumkin, ular shunchalik bir-biriga oʻxshamaydigan sharoitlarda shakllanmoqdalar. Agar avval avlodlarning jismoniy almashinuvi (yuz yillikda toʻrt marta) hayotning oʻzgarib borishi surʼatlari bilan mos tushgan boʻlsa, hozirda esa oʻzgarishlar tezligi kishilarning ularga moslashib borishi tezligidan oʻzib ketdi. Bular hammasi kishilarda kelajakka ishonchsizlik tugʻdiradi; ular oʻrtasida koʻproq tushunmovchilik, begonalik paydo boʻladi; siqilish va konfliktli vaziyatlar paydo boʻladi” [4.186]. Bunda milliy madaniyat, qadriyatlar, bir-birini tushunish, tarixiy meros va milliy - tarixiy xotiraga nisbatan munosabat ham oʻzgarib boradi. Eslatib oʻtmoqchimiz, bu fikrlar bayon etilgan kitob rossiyalik olim B.N.Bessonov tomonidan 2006 yilda yozilgan. Deyarli yigirma yil oldin yozilgan bu fikrlarning haqiqat ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol bilinmoqda.

Globalashuvning turli mamlakatlar iqtisodiy hayoti, madaniyatlar va sivilizatsiyalar, madaniyatlararo va millatlararo munosabatlarining ham taraqqiyotiga taʼsiri tobora kuchayib bormoqda. Hozirgi davr globalashuv jarayonining tez surʼatlar bilan borayotganligi bilan tavsiflanadi. “Yer yuzining aholi yashovchi deyarli barcha qismi dunyo bozorining zanjirlari, yirik imperiyalar siyosatining taʼsiri bilan bogʻlangan, ilmiy kashfiyotlar va yangiliklarning natijalari bilan qamrab olingan, jahon dinlari taʼsirining qayta tiklanishi, transport vositalari va aloqa tizimi yordamida millionlab kishilarning koʻchib yurishi, hamda oʻzaro kontaktlar maydoniga aylandi. Insoniyat ziddiyatlarga, hatto qarama-qarshi kurashuvchi mamlakatlarning guruhlari va sivilizatsiyalarga boʻlingan boʻlsa-da, u tobora oʻzini yagona butunlik sifatida his qilmoqda” [21.7].

Xulosa. Soʻnggi qisqa 10-15 yil davomida biz avval nashr etilgan maqolalarimizda aytilgan fikrlarimiz ham tabiiyki, oʻzgardi. Jamiyat hayotining barcha soxalarida transformatsiya jarayonlari naqadar tez amalga oshmoqdaki, qisqa yillarda ijtimoiy hayot butunlay oʻzgacha moxiyatga ega boʻlib bormoqda. Zamonaviy sivilizatsiya yangicha moddiy va maʼnaviy boyliklar, ilm-fan va ilgʻor texnologiyalar, sunʼiy intellekt, zamonaviy axloq va qadriyatlar, tarqalayotgan turli-tuman madaniyatlar elementlari asosida rivojlanmoqda, Dunyo hamjamiyati hozirda erkin bozor, axborot, ilgʻor texnologiyalar, sunʼiy intellekt kabilarning kuchli taʼsiri va bosimi ostida yashamoqda.

Sivilizatsiya va uning moxiyati ham oʻzgarib borishi taʼsirida insonning madaniyati, maʼnaviyati va demak, moxiyati ham oʻzgarmoqda. Zamonaviy sivilizatsiyalar uchun anʼanaviy qadriyatlar, avlodlar merosi emas, yangi texnologiyalar, axborot, investitsiyalar, ilmiy qadriyatlar ahamiyatli. Ularning madaniy-maʼnaviy potensialiga nisbatan koʻproq iqtisodiy va texnologik, axborotlashuv potentsiali turli xalqlarni birlashtirmoqda va ulkan makonlarni egallab, tarqalmoqda. Tobora iqtisodiy-texnologik taraqqiyot xususiyatiga ega boʻlib borayotgan, muntazam moddiy boyliklar yaratayotgan sivilizatsiyaning mexanizmi jadal surʼatlar asosida mavjud boʻladi. U ochiq, sinergetik va innovatsion tizimga tayanadi.

Koʻplab Gʻarb olimlari hozirgi sivilizatsiyaning asosida iqtisodiyot, bozor munosabatlari turishi toʻgʻrisida gapiradilar. Xususan, iqtisodiy globalashuvni muhim, deb biladigan amerikalik

olim Tomas Fridman bu jarayonda ITR, xususiy kompyuterlar hamda internetning bu jarayonning muhim elementi sifatida qaraydi. Fridmanning fikricha, axborot eng muhim valyuta va u erkin bozor sharoitida bemalol tarqala oladi, deb hisoblaydi. Shunday qilib, “... Agar Siz dunyoda yaxshi yashash uchun to‘siq bo‘lgan devorlardan holi bo‘lib yuqori darajaga intilayotgan bo‘lsangiz, unda Siz uchun buni amalga oshirishning yagona yo‘li – erkin bozorni yaratish, boshqa yo‘l yo‘q. Sivilizatsiyalarning tezliklari turlicha bo‘lishi mumkin, lekin yo‘l – bitta” [15.21].

Zamonaviy sivilizatsiya qulay turmush tarzi, komfort hayot, gedonizm, evdemonizm, o‘zgaruvchan ideallarga tayanmoqda. Bu xodisalar insonning aqlidan ko‘ra kundalik hayotiga, xis-tuyg‘ulariga ko‘proq ta‘sir etadi. Ularda majburiy ma‘yoriy, chegaralar deyarli yo‘q. Bunday hayotga ergashuvchi yoshlar tezroq birlashadi. Ko‘pchilik bu jarayonlarni ommaviy madaniyatning tarqalishi bilan tushuntiradi.

Z.Bjezinskiy amerikacha turmush tarzini va ommaviy madaniyatni targ‘ib etuvchi nazariyotchilaridan biri. U muammoga yondashuvini shunday bayon etadi: “Boshqalar o‘zlarining estetik qadriyatlarini haqida qanday o‘ylasalar ham, amerikacha ommaviy madaniyatning jozibasi ayniqsa, butun dunyo yoshlarini o‘ziga magnitdek tortuvchi kuch taratadi. ... Amerika televideniye dasturlari va filmlari dunyo bozorining to‘rtidan uch qismini egallagan. Amerika ommaviy musiqasi ham bosh o‘rinni egallagan, butun dunyoda amerikaliklarning qiziqishlariga, ovqatlanish odatlariga va hatto kiyinishlariga taqlid qilishadi. Internet tili - inglizcha, kompyuterdagi “suhbatlarning” asosiy qismi ham Amerikadan bo‘lib, global suhbatlarning mazmuniga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Va nihoyat, zamonaviy bilim olmoqchi bo‘lganlar uchun Amerika Makkaga aylandi; taxminan yarim million chet el talabalari Qo‘shma Shtatlarga oqib kelmoqdalar, ulardan eng qobiliyatlarining ko‘pchiligi uyga qaytmaydilar. Amerika universitetlarining bitiruvchilarini deyarli barcha mintaqalardagi har bir hukumatda topish mumkin” [5.38].

Albatta, zamonaviy qadriyatlarga ko‘proq tayanayotgan sivilizatsiya, uning tarqalishiga ijobiy ta‘sir etayotgan globallashuv insonning o‘ziga borayotgan ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan. Milliylik xususiyatlarini aks ettiruvchi sivilizatsiyaning imkoniyatlari ko‘p xollarda milliy aksiologik makon bilan cheklangan va shunga ko‘ra nisbatan konservativ bo‘lib kelgan.

Mayya sivilizatsiyasining yemirilib ketishining sababi uning boshqa jamiyatlardan ajrali, qadimiy globallashuvga qo‘shila olmay qolgani, deb o‘ylaymiz. Kelbert, Amerika arxeologi bu tarixiy xodisani quyidagicha izoxlagan edi: “Mening fikrimcha, mayyaning yo‘qolib ketishi uning madaniyat qoidalaridan chekinishi bilan bog‘liq bo‘lgan oddiy holat. Bunda madaniyat o‘ta tez rivojlanib, o‘z resurslarini juda tez ishlatib yuborib, madaniyat egalari atrof muhitga o‘ta beg‘amlilik bilan munosabatda bo‘ladilar. Boshqa qo‘shnilaridan ajralib qoladilar. Ularning tashkiliy imkoniyatlari ham tugaydi. Iqtisodiy baza ishchi kuchidan samarali foydalanish qobiliyatini yo‘qotdi” [31.112].

Mayya xalqlari o‘z hayotida boshqa jamiyatlar bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalari kamayib, ulardan uzilib qolishi, aholisining kamayib ketishi va boshqa salbiy sabablar ularning iqtisodiy hayotini ham turg‘unlikka olib keldi, mazkur sivilizatsiya o‘choqlarining ham yemirilishiga olib keldi [10,179].

Antropolog va arxeolog S. Morli va uning shogirdlari qadimgi sivilizatsiyalar va qadimgi xalqlarning hayotini o‘rganish bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borgan. U tarixda yemirilib tugagan jamiyatlarning sabablari ekologik ofatlarda va ularga qarshi kurashda shaharlar aholisining yakka qolib, imkoniyatlari yetmagan, deb ta‘kidlaydi [32.110].

Jamiyat taraqqiyotining muhim yo‘llaridan biri globallashuv jarayonlarining faol subyekti sifatida unda ishtirok etish. Bu jarayonda passiv bo‘lish yoki undan chetda qolish davlatlar va millatlarning dunyo taraqqiyotidan ajralib qolishini anglatadi. Bunga qadimda yuksak taraqqiyotga erishgan, lekin obyektiv sabablarga ko‘ra tarix saxnasidan yo‘qolib ketgan xalqlar misol bo‘ladi. Qipchoqlar, yunga, pecheneglar, skiflar, burtaslar, mochika, mayya, xazar kabi xalqlar shular jumlasidandir.

Ehtimol, qadimiy xalqlar yemirilib ketmasdan, boshqa xalqlar bilan o‘zaro iqtisodiy va boshqa aloqalar o‘rnatib, munosabatlarga qo‘shilganda va ularning hayoti va madaniyatiga integratsiya bo‘lganda, tarixda qolgan bo‘lar edi. Lekin ularning qadimiy, o‘z davrining global

munosabatlaridan chetda qolganligi sababli fikrimizcha, yashovchanligini saqlay olmagan va asta-sekin yo‘qolib ketgan, deb hisoblash mumkin. Qadimiy migratsiya, urushlar, tilning o‘zgarishi kabi jarayonlar ularning hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ular globallashuvda faol bo‘la olmaganliklari sababli bu jarayon ularning madaniyati va tarixini yutib yubordi [10.6-8].

Yana bir misol: globallashuv jarayonlaridan chetda qolishi natijasida kamayib ketgan xalqlardan biri avarlar hisoblanadi. Buyuk ko‘chish davrida ular Markaziy Vengriyaga kelib qolganlar. VI asrda avarlar boshqa xalqlar bilan qo‘shilib ketdilar. Taxminlarga ko‘ra, ular O‘rta Osiyodan kelib chiqqanlar. ularning kelib chiqishi juan-juaney qabilalariga borib taqaladi. Bu qabilalarga turklarning ham qadimgi avlodlari kirganligi to‘g‘risida taxminlar bor [24. 99-100]

Har qanday jamiyatlar, xalqlar va millatlar tarixining o‘zi yagona dunyo tarix tizimining elementidir. U mantiqan yagona tarixga va shu bilan birga globallikka intiladi. Bu obyektiv jarayonlar asosida birlashishga intilish turadi va u sivilizatsiya va globallashuvning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Albatta, sivilizatsiya va globallashuv munosabatlarining natijalari barcha davlatlar va millatlarga ham bir xil ta‘sir etadi, bu jarayonlar kuchli tarqalish potentsialiga ega deb hisoblash, muammoga noto‘g‘ri yondashuv bo‘lar edi. Masalan, G‘arb jamiyatida bu jarayon tezroq borsa, an‘anaviy Sharq jamiyatlarida uning dinamikasi va tarqalish sur‘atlari bunday emas.

Bu o‘rinda rossiyalik faylasuf olimi I.V. Zelepuxinaning fikrlarini keltirmoqchimiz: “Sir emaski, Yevropa sivilizatsiyasi nisbatan o‘jarroq, boshqalar bilan duch kelganda u ijtimoiy-madaniy jihatdan asosiy bo‘lish tendensiyasini namoyon qiladi. Bu narsani u nisbatan yosh bo‘lganligi va qadimiyroq sivilizatsiyaning ta‘siridan o‘zini himoya qilishga intilishiga yo‘yish mumkin. Sivilizatsiyaning sharqiy-an‘anaviy turlariga kelsak, ularning ayrimlari (hind-buddaviylari) tashqi ta‘silarga nisbatan neytral, boshqalari (konfutsiylik) ochiqroq bo‘lib, ular o‘z-o‘zini takomillashtirishga moyilroq, uchinchilari (musulmonlik) tashqi transformatsiyalarga kamroq ochiqdir, lekin ularning hammasi ham yuqori darajada tolerantligi bilan farq qiladi” [8.31-32].

Albatta, globallashuv ziddiyatli jarayon va u global umumiy imkoniyatlarnigina emas, umumiy global xavf-xatarlarni ham anglatadi. Globallashuvni tavsiflovchi tushunchalar ham paydo bo‘ldi: “jahon bozori”, “megajamiyat”, “kiberinson”, “dunyo fuqarosi”, “kiberemigrant”, “kiberavlod”, “ko‘p variantli supersiyosat” kabi tushunchalar globallashuvning xususiyatlarini ifoda etadi. O‘zbekiston jamiyati oldida turgan savollardan biri “globallashuv sharoitida nima qilish kerak?” – degan savol emas, bu savolni berish uchun kech, “globallashuv sharoitida uning imkoniyatlaridan qanday foydalanish zarur?”, degan savol qo‘yilishi to‘g‘riroq bo‘ladi.

Globallashuvning tez tarqaladigan shakli iqtisodiy globallashuv hisoblanadi. Iqtisodiy globallashuv bu jarayonning boshqa shakllariga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda jamiyat a‘zolari faollashadi, o‘z faoliyatlarini qayta qurishga, globallashuvga moslashishga salohiyatini yuksaltirishga intiladi. “Salohiyat jihatdan insonning qobiliyatlari cheksiz. Inson bo‘lish qobiliyati uning faoliyatiga teng bo‘lmaslik qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, inson o‘zi yaratganlardan o‘tib ketadi” [12.172].

Barcha davlatlar va millatlar G‘arb davlatlarining bosimini sezmoqda. Bunday xolatda davlatlar va millatlar o‘z qobiliyati va potensialini saqlashi, uni kerakli o‘rinda maqsadli sarf qilishi, zarurat tug‘ilganda, kurasha olishi, progressiv yangiliklarni qabul qilishi, o‘zaro manfaatli iqtisodiy va boshqa aloqalarni o‘rnata bilishi talab etiladi. O‘zbekistonning jaxon iqtisodiy-madaniy makonida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uning globallashuv olib kelayotgan iqtisodiy-madaniy imkoniyatlardan foydalana olishi, globallashuvning salbiy jihatlariga qarshi kurashish salohiyatiga ega bo‘lishi hamda globallashuv sharoitida salohiyatini yuzaga chiqarib, uni manfaatli qo‘llay olishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston pragmatizmga asoslangan har tomonlama ochiq siyosat olib borib, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Koreya, qator Yevropa davlatlari, arab mamlakatlari va boshqa davlatlar bilan ko‘plab soxalarda iqtisodiygina emas, madaniy aloqalarni ham o‘rnatmoqda. Bunday global munosabatlar sivilizatsiyaviy aloqalarni ham kengaytirayotganligi aniq.

Biz o‘z tolerantligimiz haqida ko‘p gapiramiz. Albatta tolerantlik - ijobiy xususiyat. Lekin u maxalliy millatning manfaatlarini himoya qiluvchi va taraqqiyotiga xizmat qiluvchi tolerantlik

bo'lishi lozim. Globallashuv sharoitida ortiqcha tolerantlikka yo'l qo'yish maqsadga muvofiq emas. Shunga ko'ra har qanday tolerantlik o'zining real chegarasiga ega bo'lishi lozim. Quyidagi fikrni keltirish o'rinli bo'ladi. "Tolerantlik nima? Bu yon bosish, befarqlik emas. Bu boshqalarni bilish va tushunish. Bu o'zaro tushunish orqali o'zaro hurmat... Tolerantlik nima? Birlashish - ha; bir xillashuv - yo'q.

Turli - tumanlik - ha. Zo'ravonlik - yo'q. O'tkir bahslar - ha; kuch va tobelik - yo'q" [1.11].

Lekin shu bilan birga O'zbekiston pragmatizmga asoslangan har tomonlama ochiq siyosat olib borib, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Koreya, qator Yevropa davlatlari, arab mamlakatlari va boshqa davlatlar bilan ko'plab soxalarda iqtisodiygina emas, madaniy aloqalarni ham o'rnatmoqda. Bunday global munosabatlar sivilizatsiyaviy aloqalarni ham kengaytirayotganligi aniq.

Bu o'rinda global munosabatlar ko'proq mintaqaviy xususiyat kasb etib borayotganligini ta'kidlash zarur. Xususan, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining barcha soxalarda o'zaro munosabatlari kengayib borayotganligi iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy rivojlanishi, qadriyatlar va turmush tarzi tarixan yaqin bo'lgan millionlab xalqlarning o'zaro integratsiyaga kirayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Chunki, bugungi ziddiyatli zamonda ijtimoiy subyektlar globallashuvning o'zlari uchun har tomonlama qulay bo'lgan mintaqaviy shaklini tanlayotganligi bu jamiyatlarning maqsadlari va manfaatlariga javob beradi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, globallashuv sharoitida sivilizatsiyalar qatoridan munosib o'rin olish, O'zbekistonning turli sivilizatsiyalar dialogida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi va teng huquqli ishtirokchi sifatida faoliyat ko'rsata olishi unga kelajakda yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy egallashiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность.-Т.:Университет, 2004.
2. Баталов Э.Я. Между прошлым и будущим. О книге Олвина Тоффлера "Третья волна". Иностранная литература, 1981. № 9.
3. Бегматов А. Маънавият фалсафаси. 2-китоб. Т., 2006.
4. Бессонов Б.Н. Гуманизм и уховное развитие общества. М.: Издательство РАГС, 2006.
5. Бжезинский З. Великая шахматная доска. М., 1999.
6. Василенко И.А. Диалог цивилизаций: социокультурные проблемы политического партнерства. М.:Эдиториал УРСС, 1999.
7. Василенко И.А. Политическая глобалистика.М.:Логос, 2000.
8. Зелепухина И.В. Национальное в контексте глобализации. Дисс. на соискание канд. ф.н. Черкасск, 2005.
9. Игнатенко А.А. Ибн-Хальдун. М.:Мысль, 1980.
10. Исчезнувшие народы. М.: Наука, 1998.
11. Кен Уилбер. Интегральная духовность. Новая роль в современном и постсовременном мире. Электронное издание. ООО. Ориенталия, 2013.
12. Миньюшев Ф.И. Социальная антропология. –Москва: Международный Университет Бизнеса и управления. Братья Карич, 1999.
13. Очерки истории арабской культуры У-ХУ вв. Главная редакция восточной литературы. М.:Наука, 1982.
14. Семенникова П.А. Россия в мировом сообществе цивилизаций.-М.:Интерпресса, 1994.
15. Фридман Т.Л. Мир-общий дом. Краткая история двадцать первого века. Нью-Йорк, 2005.
16. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис.1994. № 1.
17. Хантингтон С. "Кто мы есть? Вызовы американской национальной идентичности" - М.: ООО «Издательство АСТ»; ООО «Транзит-книга», 2004.

18. Хўжаев А. Буюк ипак йўли. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Т., 2007.
19. Шаповалов В.Ф. Основы философии современности. К итогам XX века. М.: “Флинта”, “Наука”, 1998.
20. Яковец Ю. История цивилизаций. М.: Владос, 1997.
21. Яковец Ю.В. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. Экономика. Издание 2-е. Дополненное и переработанное. М., Экономика, 2003. История цивилизаций. М.: Владос, 1997, У истоков новой цивилизации. М.: Дело, 1993.
22. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси.-Т.: Академия, 2000.
23. Эргашев И. Ақл ва илҳом сатрлари // Жамият ва бошқарув. 2008. № 2.
24. Эрдели И. Авары. // В кн. Исчезнувшие народы.-Москва: Наука, 1988.
25. Юлдашева Ф.Х. Глобаллашув: маданиятлараро мулоқотми ёки “цивилизациялар тўқнашуви”// Тошкент. Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2009.-№ 2.-Б.88-97.
26. Юлдашева Ф.Х. К вопросу о взаимосвязи глобализации и цивилизации. Вестник пермского университета. 2011. № 2(6).-С.36-42.
27. Yuldacheba F. Globalization, understanding self - identity, and formation of new personality. European science review. Vienna, 2018. № 5-6. May - June.- P.396-398.
28. Yuldasheva F.Kh. Globalization and the evolution of national consciousness International conference “Global Science and Innovation”. – Publishing office Accent Graphics communications – Chicago – USA, 2015.– P. 271-274.
29. Яковец Ю.В. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. Экономика. Издание 2-е. Дополненное и переработанное. М.: Экономика. 2003.
30. Gullbert P.T. The Lost Civilization: the Story of Classic Maya. N.Y. 1947.-P.112.
31. Morli S.G/ The Ancient Maya. Stanford. 1947.-P.110.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.

ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729 “СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА”.

PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000